

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINF DAN TASHQARI O'QISH METODIKASI

**Ochilova Guljahon G'ulomjonovna**

*Andijon viloyati Izboskan tumani*

*12-umuniy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Sinf dan va maktabdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri ko'p darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoasining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yishlariga bog'liqdir. Sinf dan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlar har xil o'quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtirishi haqida so'z boradi.*

**Kalit so`zlar:** madaniyat, shakllantirish, rivojlantirish, faoliyat, ta'lim, jarayon, maqsad, dastur, o'qish.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qishga kichik yoshdagi o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhum vositasi sifatida qaraladi. Sinf dan tashqari o'qishning maqsadi kichik yoshdagi o'quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq og'zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Sinf dan tashqari o'qish dasturining mazmuniga ko'ra ta'limning har bir bosqichida ikki-asosiy bo'limiga ajratiladi.

1-bosqichda o'qish doirasi, ya'ni o'qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o'qish bilan tanishtirish yuzasidan o'quvchilarga ko'rsatma beriladi.

2-bosqichda shu o'quv materiallari asosida bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturiga ko'ra 1-sinfda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning ona Vatan, istiqlol, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlari kengaytiriladi, boyitiladi. Maqsad kichik yoshdagi bolalarda kitobga mehr uyg'otish, mustaqil uquvlarini paydo qilishdir. Asosan bu sinf o'quvchilariga kitob bilan muamola qilish, kitob o'qish qolidalari, kitobni asrash, asar qahramonlarining hatti-harakatlarini kuzatish, ijobjiy tomonlarni o'rganish, obrazli qilib qayta hikoya qilib berish, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir. Bu sinf o'quvchilari uchun asosan rasmlarga boy kitoblar olinadi. O'qituvchi bolalarning his-tuyg'ularini o'stiradigan kitoblarni o'qib berish orqali mustaqil mamlakatimiz, uning go'zal shaharlari, qishloqlari, milliy urf-odatlari, qadriyatları, o'tmishi, insonlarning orzu-istiklalini bilimga havas uyg'otadi. Ularda bilimga havas uyg'otadi.

Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar kontseptsiyasida tarbiyaviy tadbirdilarni takomillashtirish zaruriyati, alohida ta'kidlangan: siyosiy tuzumiing o'zgarganligi, yangicha iqtisodiy munosabatlarning shakllanib borishi, tarbiyaviy ishni yaxshilashda davr talabiga javob beradigan yangicha tamoyillari g'oyalar, ish uslubiyatlarini ishlab chiqish hamda o'qituvchining ijodkorlik faoliyatinn qaytadan qurmoq lozimdir.

Tarbiyachining navbatdagi vazifasi bolalar jamoasini tashkil qilish, tarbiyalash va jipslashtirish borasidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirib, ilg'or tajribalarga suyanib o'quvchilarni

tarbiyaviy jarayonda o'rtoqlik-do'stlik, o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, o'z-o'zini tarbiyalash va boshqarish kabi jamoatchilik sifatlarini tarbiyalash mahoratini o'zlashtirishdan iborat. Ular:

- sinfning boshlang`ich jamoasini tarbiyalash va ularda o'zaro munosabat aloqalarini yaratish.

- shaxsiy manfaatdan jamoa manfaatini yuqori qo'yishga o'rgatish

- jamoada bir-biriga mehr-oqibatli, muruvvat va sahiylik, do'stona hamkorlik mavjud bo'lsa, u katta tarbiyaviy kuchga aylanadi.

Kichik yoshdagagi maktab o'quvchilar jamoalari tashkil qilishda o'qituvchidai turli-tuman usul va vositalardan mahorat bilan foydalanish talab qilinadi:

1.O'qituvchi jamoa a`zolarini yangi sharoitga (maktabning I sinfidan boshlab) moslashuv davrida ularga ishonch, xurmat, xushmuomalalik, talablarni to'g`ri qo'ya bilish shu bilan birga o'quvchini tushunish va eshita bilish mahoratiga ega bulish talab etiladi;

2.O'quvchilar jamoasidagi etaklovchi kuch tayanch o'zagini tanlash;

3.Jamoa a`zolarining har birining kuchiga, qobiliyatiga qarab topshiriqlar berish;

4.Jamoada yangi an`ana, qonun-qoidalarni dastlabki kurtagini yaratish va unga amal qilish;

5.Jamoa istiqbolini davr talabi bilan moslashgan holda belgilash talab qilinadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta`siri ko'p darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoasininig xilma -xil ishlarni qanday yo'lga qo'yishlariga bog`liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlar har xil o'quvchilarini ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib keladi. Sinfdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faoliik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omildir.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quv-chilarining qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda, ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi. U o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini, tashabbus-korligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarning o'ziga xosligi shundaki, to'garak, klub dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o'smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Tarbiya, jamiyatdagi hodisa sifatida, o'sib kelayotgan avlodning jamiyat hayotida, turmushi, ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati, ijodi va ma'naviyligida ishtirok etishi murakkab qarama-qarshi ijtimoiy-tarixiy jarayon hisoblanadi. Ularning odam bo'lishlari, rivojlanishlari va individualliklari, jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari muhim elementlari, shaxsiy baxtlarini yaratuvchilar bo'lib ishtirok etadi. U ijtimoiy taraqqiyot va avlodlar ketma-ketligini ta'minlaydi.

Maktabda va sinfdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchi-larning bir-biriga hurmati, axloqiy sifatlari jamoa orasida shakllanib boradi. Bunda o'quvchilarining bir-biriga bo'lgan muomala madaniyati ham shakllanadi. O'quvchi o'qituvchiga taqlid asosida yoki do'stlari orasida o'rgangan tarbiyasi muomilasiga ta'sir qilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilar orasida muomala madaniyatini shakllantirish uchun avvalambor o'quvchining o'ziga bo'lgan muomalasini, e'tiborini o'rganishi kerak.

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarishi bilan bog'lanishaga zamin yaratadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

1. Jo'raqulov R.D. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qo'yilgan davlat talablari bo'yicha testlar. – "Ziyokor", Samarqand, 2003, 10-son, B. 34-38.
2. Jo'raqulov R.D. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari malakasini oshirish kursi ishtirokchilariga belgilangan davlat talablari xususida // "Boshlang'ich ta'lif fidoyilari". 8-to'p-lam. – Samarqand: VPQTMOI, 2003, B. 3-6.
- 3.. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan asosiy talablar xususida (Tavsiyanoma). Tuzuvchilar: R.D.Jo'raqulov va b. – Samarqand: VPQTMOI, 2003. – 30 b.